

Men Vayisova Dilnurabonu “Mushoira” klubi (rahbari Nasiba Norova) va “Yosh tanqidchilar” (rahbari Shohsanam Davronova) to'garigiga a'zoman. Bu klub va to'garaklar faoliyati jarayonida tashkil qilinayotgan badiiy kechalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda qatnashib kelyapman.



Mushoira klubida qatnashish jarayonida ustozimiz Nasiba Norova ko'maklarida yutuqlarga erishdim, ijodiy ishlarim “Buxoro universiteti” gazetasida chop etildi:



Mushoira klubi ishtirok etish jarayonida Milliy tiklanish demokratik partiyasi Buxoro viloyati bo'limi tomonidan tashkil qilingan “XXI asr ayoli” Respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 3-o'rinni egalladim:



(Rasmda chapdan ikkinchi)

2025-yil 6-may kuni Filologiya fakulteti islohotlar markazida "Yosh mantshunoslar" va "Yosh tanqidchilar" to'garagi a'zolari, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi Buxoro viloyati bo'limi raisi Shamshod Ochilov, jurnalist va yozuvchi Obid Qo'ldosh bilan birgalikda Buxoro adabiy harakati vakili, jurnalist, ijodkor Mahbuba Xolova bilan ijodiy uchrashuv tashkil etildi. Mazkur uchrashuvda men ham qatnashdim.



“5 muhim tashabbus” doirasida Qorako'l tumani 26-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil qilingan “Drama to'garagi” faoliyati.

To'garak tashkilotchisi: **Vayisova Dilnurabonu** BuxDU 1-bosqich magistranti. Bu to'garagim 7-11-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. O'quvchilar bilan 2024-2025-o'quv yili davomida ish reja bo'yicha bir nechta sahna ko'rinishlari tayyorladik. Drama to'garagi tashkil qilishdan maqsadim – yosh avlod qalbida badiiy-estetik didni shakllantirish, ularda sahna san'ati, aktyorlik mahorati, jamoaviy ishlash, erkin fikr va so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirish, kitobxonlikka bo'lgan qiziqishni oshirishdir.

Bu to'garak orqali o'quvchilar: milliy va jahon adabiyotining sara namunalarini sahnalashtirish orqali o'zbek tilining boyligini his qiladilar, ijtimoiy faollik, mas'uliyat, tashabbuskorlik, ishonch kabi fazilatlarini o'zlashtiradilar, o'z ijodiy salohiyatlarini namoyon qilish imkoniga ega bo'ladilar. Shuningdek, drama to'garagi – bolalarning tafakkurini, tasavvurini, hissiyatini va ma'naviy olamini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda ular faqatgina sahna ko'rinishlarini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'z ustida ishlash, o'z fikrini omma oldida erkin ifodalash, sahna madaniyati kabi ko'nikmalarni egallaydilar.

Drama to'garagining 2024-2025-o'quv yil qatnashchilari uchun O'QUV REJASI

№	O'TILADIGAN MAVZULAR	Soati	Mashg'ulot turi	O'TILGAN VAQTI
1	Drama haqida ma'lumot	1	nazariy	7.09.2024
2	Dunyo sahnalarini zabt etgan 10 asar	1	Nazariy	14.09.2024
3	O'zbek dramaturgiyasi tarixi va buguni	1	Nazariy	21.09.2024
4	“ Padarkush ” dramasi	1	Amaliy	28.09.2024
5	Ustoz aziz va mo'tabar nomli sahna ko'rinishi	1	Amaliy sahna ko'rinishi	5.10.2024
6	Nodira Rashidovaning "Usmon Nosir" spektakli va uni sahnalashtirish	1	Amaliy sahna ko'rinishi	12.10.2024
7	O'LIM YO'Q, SHAHQAT (O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun uchun foydalanishga sahna ko'rinishi)	1	Amaliy sahna ko'rinishi	19.10.2024
8	Nodirabegim Maknuna hayotidan bir pardalik monolog.	1	Amaliy sahna ko'rinishi	26.10.2024
9	Ma'naviy va ma'rifiy tadbirlar uchun MUKOFOT VA JAZO nomli bir pardali sahna ko'rinishi	1	Amaliy sahna ko'rinishi	2.11.2024
10	Sharof Rashidovning “ Kashmir qo'shig'i ” qissasi (darslikdan tashqari)	1	Amaliy sahna ko'rinishi	16.11.2024
11	Oskar Uayld “Baxtli shahzoda” ertagidan bir pardalik sahna ko'rinishi	1	Video Amaliy sahna ko'rinishi	23.11.2024
12	O'lmas Umarbekov “ QIYOMAT QARZ ” Bir pardali, bir ko'rinishli drama (maktab sahnasi uchun)	1	Video Amaliy sahna ko'rinishi	30.11.2024
13	Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” romanidan bir pardalik sahna ko'rinishi	1	Video Amaliy sahna ko'rinishi	7.12.2024
14	Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan Chayon” romanidan bir pardalik sahna ko'rinishi	1	Amaliy sahna ko'rinishi	14.12.2024
15	Qochoq-oqqadar farzand Said Ahmadning “UFQ” romanidan bir pardalik sahna ko'rinishi 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko'rinishi	21.12.2024
16	Qochoq-oqqadar farzand Said Ahmadning “UFQ” romanidan bir pardalik sahna ko'rinishi 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko'rinishi	11.01.2025

17	“Jaloliddin Manguberdi” tragediyasidan bir pardalik sahna ko’rinishi			18.01.2025
18	Izzat Sulton va Uyg’unning “Alisher Navoiy” dramasidan “Navoiy va Guli” monologi	1	Amaliy sahna ko’rinishi	25.01.2025
19	“Navoiyxonlik” uchun yangicha sahna ko’rinishi 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko’rinishi	01.02.2025
20	“Navoiyxonlik” uchun yangicha sahna ko’rinishi 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko’rinishi	08.02.2025
21	Boburiylarni “Ko’hinur” olmosi sahna ko’rinishi 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko’rinishi	15.02.2025
22	Boburiylarni “Ko’hinur” olmosi sahna ko’rinishi 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko’rinishi	22.02.2025
23	Hidi, tilimi va mazasi (Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonlik dehqonlarga QOVUN o’stirishni buyurgani haqida)	1	Amaliy sahna ko’rinishi	29.02.2025
24	“Kecha va Kunduz” asaridan “Zebining sudi” deb nomlangan sahna ko’rinishi 2 soatlik	1	Amaliy Videospektakl	07.03.2025
25	“Kecha va Kunduz” asaridan “Zebining sudi” deb nomlangan sahna ko’rinishi 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko’rinishi	14.03.2025
26	MIRZO ULUG’BEK (Tarixiy fojiadan lavhalar) 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko’rinishi	28.03.2025
27	MIRZO ULUG’BEK (Tarixiy fojiadan lavhalar) 2 soatlik	1	Amaliy sahna ko’rinishi	4.04.2025
28	Muhammad Yusuf hayotidan bir pardalik sahna ko’rinishi	1	Amaliy sahna ko’rinishi	11.04.2025
29	YEvGENIY ONEGIN (she’riy romandan parchalar)	1	Amaliy sahna ko’rinishi	18.04.2025
30	“Temir Xotin” komediyasi	1	Amaliy sahna ko’rinishi	25.04.2025
31	“Temir Xotin” komediyasi	1	Amaliy sahna ko’rinishi	2.05.2025
32	Hamlet tragediyasidan bir pardalik sahna ko’rinishi	1	Amaliy sahna ko’rinishi	2.05.2025
33	ABULFAYZXON Yo’qsul o’lkasining tarixidan bir pardali fojia (maktab sahnasi uchun)	1	Amaliy sahna ko’rinishi	9.05.2025
34	Erkin A’ZAM “TANHO QAYIQ” Orol bobodan dramatik rivoyat	1	Amaliy sahna ko’rinishi	16.05.2025

O’quvchilar bilan to’garakda tayyorlagan sahna ko’rinishlarimiz:



